

## **QISHLOQ VA SHAHAR BOLALARI TA'LIM IMKONIYATLARI: NAZARIY TUSHUNCHALAR VA ILMIY YONDASHUVLAR**

Ahmadjonova Muattar Ahadjon qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlar tarixiy, ijtimoiy va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ta'lim tizimining shakllanishi urbanizatsiya, ishlab chiqarish munosabatlari va madaniy muhit bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Xalqaro va milliy tadqiqotlar misolida hududiy ta'lim tengsizliklarining sabablari ochib berilib, boshlang'ich ta'lim bosqichining muhimligi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotda qishloq maktablarida ta'lim sifatini oshirish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash imkoniyatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** qishloq va shahar ta'limi, ta'lim tengsizligi, boshlang'ich ta'lim, ta'lim sifati, inklyuziv ta'lim

### **Аннотация**

В статье анализируются различия в образовательных возможностях сельских и городских детей в историческом, социальном и педагогическом аспектах. Показана взаимосвязь развития системы образования с процессами урбанизации, производственными отношениями и культурной средой. На основе международных и национальных исследований раскрываются причины территориального неравенства в образовании, а также подчеркивается особая роль начального образования в формировании учебной мотивации и познавательных способностей. Обосновывается значение повышения качества образования в сельских школах для обеспечения социальной справедливости.

**Ключевые слова:** сельское и городское образование, образовательное неравенство, начальное образование, качество образования, инклюзивное образование

### **Annotation**

This article examines the disparities in educational opportunities between rural and urban children from historical, social, and pedagogical perspectives. It highlights the close relationship between the development of education systems, urbanization processes, production relations, and cultural environments. Drawing on international

and national studies, the paper identifies the key factors contributing to territorial educational inequality and emphasizes the critical role of primary education in shaping learning motivation and cognitive skills. The study underscores the importance of improving the quality of rural education to promote social equity.

**Keywords:** rural and urban education, educational inequality, primary education, quality of education, inclusive education

Qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlari masalasi jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida muhim ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lib kelgan. Ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi bevosita ishlab chiqarish munosabatlari, urbanizatsiya jarayonlari hamda madaniy muhit bilan uzviy bog'liqdir. Tarixiy jihatdan shaharlar ilm-fan, savdo va madaniyat markazlari sifatida shakllangan bo'lsa, qishloq hududlari asosan agrar munosabatlar hukmron bo'lgan makon sifatida rivojlangan. Ushbu tarixiy farqlar ta'lim imkoniyatlarida muayyan tafovutlarning vujudga kelishiga zamin yaratgan<sup>1</sup>.

Qadimgi va o'rta asrlarda ta'lim muassasalari, jumladan maktab va madrasalar, asosan shaharlar bilan bog'liq bo'lgan. Qishloq muhitida esa bilimlar ko'proq og'zaki an'analar, mehnat jarayoni va kasb-hunar orqali avloddan avlodga o'tgan. Bu holat rasmiy ta'lim va norasmiy ta'lim shakllari o'rtasidagi tarixiy tafovutni yuzaga keltirgan.

Yangi davr va sanoat inqilobi jarayonida shaharlarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimining markazlashuviga olib keldi. Shahar maktablari moddiy-texnik va metodik jihatdan rivojlangan bo'lsa, qishloq maktablarida ta'lim sifati ko'pincha cheklangan sharoitda olib borilgan. Natijada qishloq va shahar bolalarining fanlarni, jumladan tarix fanini o'zlashtirish imkoniyatlari o'rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelgan.

XX asrda umumiy majburiy ta'lim tizimining joriy etilishi qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan muhim tarixiy bosqich bo'ldi. Yagona o'quv dasturlari va davlat ta'lim siyosati orqali qishloq bolalarining ta'limga qamrovi kengaydi. Shunga qaramay, shahar hududlarida ilmiy muassasalar, muzeylar, arxivlar va raqamli resurslarning mavjudligi tarix fanini o'rganishda qo'shimcha ustunliklarni saqlab qoldi.

Zamonaviy tarixiy-nazariy yondashuv shuni ko'rsatadiki, qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlari o'rtasidagi farqlar nafaqat moddiy sharoitlar, balki tarixiy xotira va madaniy muhit bilan ham bog'liqdir. Shahar bolalari tarixni asosan yozma va

---

<sup>1</sup> To'laganov X. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.

raqamli manbalar orqali o'rganayotgan bo'lsa, qishloq bolalari mahalliy tarix, tarixiy obidalar va og'zaki rivoyatlar orqali tarixiy ongini shakllantiradi<sup>2</sup>.

Bunda, tarixiy nuqtayi nazardan qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlari bilan belgilanadi. Tarix fanini o'qitishda ushbu farqlarni inobatga olish, ikki muhitning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi ijtimoiy tenglikni ta'minlashning muhim belgisi sifatida e'tirof etiladi. Shunday bo'lsa ham bir qator xalqaro va milliy tadqiqotlar qishloq va shahar hududlarida yashovchi bolalarning ta'lim imkoniyatlari o'rtasida sezilarli farqlar borligini ko'rsatadi<sup>3</sup>. Ushbu holat ta'lim orqali ijtimoiy tengsizlikning qayta ishlab chiqarilishiga xizmat qilmoqda.

UNESCO tomonidan e'lon qilingan "Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education" (Global Ta'limni Monitoring qilish hisoboti: inklyuziv ta'lim) hisobotida aytilishicha, qishloq hududlarida yashovchi bolalar sifatli ta'limdan chetda qolayotgan ijtimoiy guruh sifatida baholanadi. Hisobotda ta'lim infratuzilmasining zaifligi, pedagog kadrlar yetishmovchiligi va o'quv resurslarining cheklanganligi qishloq bolalarining o'qishdagi muvaffaqiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi<sup>4</sup>.

Jahon Bankining World Development Report: Learning to Realize Education's Promise (Jahon Rivojlanish Hisoboti: Ta'limning va'dasini amalga oshirish uchun o'rganish) ma'lumotlarida ta'limdagi hududiy tafovutlar "ta'lim sifati" va "ta'limga kirish imkoniyati" tushunchalari orqali tahlil qilinadi. Unda qayd etilishicha, shahar maktablari ko'pincha qishloq maktablariga nisbatan ko'proq institutsional va moddiy resurslarga ega bo'lib, bu holat bilim darajasi va kompetensiyalarda nomutanosiblikni keltirib chiqaradi<sup>5</sup>.

OECDning Education in Rural Areas: Policy Responses for Equity and Inclusion (Qishloq Hududlarida Ta'lim: tenglik va inklyuziya uchun siyosiy javob choralar) nomli tadqiqotida qishloq ta'limidagi muammolar ta'lim siyosati va boshqaruv mexanizmlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda resurslarning notekis taqsimlanishi va markazlashgan ta'lim siyosati qishloq va shahar ta'limi o'rtasidagi tafovutlarni kuchaytiruvchi omillar sifatida baholanadi<sup>6</sup>.

Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchi S. Azimov tadqiqotida qishloq maktablarida

<sup>2</sup> UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. – Paris, 2020.

<sup>3</sup> UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. - Paris, 2020.

<sup>4</sup> World Bank. World Development Report: Learning to Realize Education's Promise. - Washington, DC, 2018.

<sup>5</sup> O'sha manba

<sup>6</sup> OECD. Education in Rural Areas: Policy Responses for Equity and Inclusion. - Paris: OECD Publishing, 2022.

pedagog kadrlar yetishmasligi, raqamli texnologiyalarga cheklangan kirish hamda madaniy kapitalning pastligi qishloq o'quvchilarining ta'limiy muvaffaqiyatlarini cheklovchi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi<sup>7</sup>.

Ta'lim va ijtimoiy adolat bo'yicha tadqiqotchilar Barrett va Sayedning inklyuziv ta'limga bag'ishlangan ilmiy ishida resurslari cheklangan hududlarda ta'lim tengligini ta'minlash masalasi muhim ijtimoiy vazifa sifatida talqin qilinadi. Mualliflar qishloq bolalari uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishda mahalliy madaniy va ijtimoiy kontekstni hisobga olgan pedagogik yondashuvlar muhimligini ta'kidlaydilar<sup>8</sup>.

O'zbekistonda qishloq va shahar ta'limi o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish masalasi "Ta'limni rivojlantirish milliy strategiyasi – 2030" hujjatida alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Strategiyada qishloq maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagoglar salohiyatini oshirish va raqamli ta'limni rivojlantirish orqali hududiy tengsizliklarni qisqartirish maqsad qilib qo'yilgan<sup>9</sup>.

Umuman olganda, qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlar institutsional, iqtisodiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish kompleks ilmiy va amaliy yondashuvlarni talab etadi. Xalqaro va milliy tadqiqotlar mazkur muammoni inklyuziv ta'lim siyosati orqali hal etish mumkinligini ko'rsatadi.

Qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlarini tahlil qilishda boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu bosqichda bolalarda bilim olishga bo'lgan munosabat, fikrlash madaniyati va o'quv motivatsiyasi shakllanadi. Atajonova va hammualliflarning tadqiqotlarida boshlang'ich ta'lim pedagogikasi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida baholanib, o'qituvchi faoliyati, o'quv muhitining tashkil etilishi hamda metodik yondashuvlarning muhimligi ta'kidlanadi<sup>10</sup>. Shu nuqtayi nazardan, qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi pedagogik sharoitlar farqi bolalarning ta'limiy imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi ham hududiy tafovutlar bilan chambarchas bog'liq. Abdurazzaqov tomonidan olib borilgan tadqiqotda innovatsion pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan<sup>11</sup>. Biroq amaliyot shuni

<sup>7</sup> Azimov S. Addressing Rural Education Gaps in Central Asia: Challenges and Reforms // *Central Asia Education Review*. - 2021.

<sup>8</sup> Barrett A., Sayed Y. Towards Inclusive Education: Strategies for Equity in Low-Resource Settings // *Comparative Education Journal*. - 2020.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ta'limni rivojlantirish milliy strategiyasi -2030. - Toshkent, 2023.

<sup>10</sup> Atajonova A.J., Raximova Sh.A., Raximova G.I., Jumaniyozova G.B. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. Toshkent, 2024.

<sup>11</sup> Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv. Toshkent, 2014.

ko'rsatadiki, bunday innovatsion metodlar asosan shahar maktablarida kengroq joriy etilmoqda, qishloq maktablarida esa moddiy-texnik baza va metodik ta'minotning cheklanganligi ularning samarali qo'llanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Xalqaro tadqiqotlar ham qishloq va shahar ta'lim imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni tasdiqlaydi. Karasko va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda boshlang'ich maktablarda ta'lim samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar — o'qituvchilar malakasi, sinf hajmi, o'quv resurslari va maktab infratuzilmasi — alohida tahlil qilingan<sup>12</sup>. Ushbu omillar ko'pincha shahar maktablarida nisbatan qulayroq bo'lib, bu holat qishloq bolalarining akademik natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bhattacharya tadqiqotlarida esa maktab bilan bog'liq omillarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishdagi yutuqlariga ta'siri empirik asosda ko'rsatiladi<sup>13</sup>. Muallif ta'lim sifati faqat o'quv dasturlari bilan emas, balki o'qitish metodlari, sinfdagi psixologik muhit va o'quvchilarning ijtimoiy sharoitlari bilan ham bog'liq ekanini qayd etadi. Bu holat qishloq hududlarda yashovchi bolalar uchun ta'lim jarayonini kompleks qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Jahon Banki tomonidan e'lon qilingan "Effective Teaching Practices in Primary School Classrooms" (Boshlang'ich maktab sinflarida samarali o'qitish amaliyotlari) hisobotida boshlang'ich ta'limda samarali o'qitish amaliyotlari ta'limdagi tengsizlikni kamaytirishning asosiy vositalaridan biri sifatida baholanadi<sup>14</sup>. Hisobotda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, o'quvchilarga individual yondashuv va faol o'qitish metodlari qishloq va shahar o'rtasidagi ta'lim farqlarini qisqartirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuvlar qishloq maktablarida ham tizimli ravishda joriy etilsa, bolalarning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligi qayd etiladi.

Shunday qilib, qishloq va shahar bolalari ta'lim imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlar nafaqat infratuzilma va resurslar bilan, balki pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlardan foydalanish darajasi hamda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Milliy va xalqaro tadqiqotlar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish orqali hududiy ta'lim tengsizliklarini kamaytirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. To'laganov X. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. – Paris, 2020.

<sup>12</sup> Carasco J.F., Munene J.C., Kasente D.H., Odada M. Factors influencing effectiveness in primary schools. Uganda, 1996.

<sup>13</sup> Bhattacharya D. Effectiveness of school related factors on learning performance of primary school children. India, 2016.

<sup>14</sup> World Bank. World Development Report: Learning to Realize Education's Promise. Washington, DC, 2018.

3. World Bank. World Development Report: Learning to Realize Education's Promise. - Washington, DC, 2018.
4. OECD. Education in Rural Areas: Policy Responses for Equity and Inclusion. - Paris: OECD Publishing, 2022.
5. Azimov S. Addressing Rural Education Gaps in Central Asia: Challenges and Reforms // *Central Asia Education Review*. - 2021.
6. Barrett A., Sayed Y. Towards Inclusive Education: Strategies for Equity in Low-Resource Settings // *Comparative Education Journal*. - 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ta'limni rivojlantirish milliy strategiyasi -2030. - Toshkent, 2023.
8. Atajonova A.J., Raximova Sh.A., Raximova G.I., Jumaniyozova G.B. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. Toshkent, 2024.
9. Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv. Toshkent, 2014.
10. Carasco J.F., Munene J.C., Kasente D.H., Odada M. Factors influencing effectiveness in primary schools. Uganda, 1996.
11. Bhattacharya D. Effectiveness of school related factors on learning performance of primary school children. India, 2016.
12. World Bank. World Development Report: Learning to Realize Education's Promise. Washington, DC, 2018.